

**2025 yilning 2-choragi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish  
tizimining amal qilishi haqida  
UMUMIY HISOBOT \***

“O`zMinda” XIHK MCHJda tashkil qilingan aloqa kanallari bo`yicha ishlar amalga oshirilgan. Ya`ni, Ishonch telefoni 2010 yil mart oyida Rasmiy veb-saytdagi aloqa kanali boyicha quyidagi aloqa kanallari mavjud.

Elektron manzil [info@uzminda.uz](mailto:info@uzminda.uz)

Telegram messenjeridagi aloqa kanali <https://t.me/uzminda>

Ishonch telefoni +9988 79 220 01 05 (vertual:79-225-65-59)

Rasmiy veb-saytdagi aloqa kanali <https://www.uzminda.uz/page/contacts>

Facebook <https://facebook.com/uzminda>

“O`zMinda” XIHK MCHJda 2025 yilning 2-choragi davomida korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlar mavjud emas.

Shuningdek, “UzautoComponents” MCHJning 26.09.2022 yildagi 07-042-sonli “Komplayens nazoratiga oid hujjatlarni qayta ko`rib chiqish va tizimlashtirish to`g`risida”gi qabul qilingan buyrug`i asosida korxonada O`zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi Korrupsiyaga qarshi kurashish to`g`risida”gi O`RQ-419-sonli Qonuni, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-son “O`zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi, 2021 yil 16 iyundagi PF-6247-son “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta`minlash, shuningdek jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi, 2019 yil 27 maydagi PF-5729-son “O`zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi farmonlari talablarini o`z vaqtida bajarilishini ta`minlash maqsadida korxonada qabul qilingan siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo`riqnomalar bilan korxonaning barcha xodimlari tanishtirilgan.

Korxonada 2025 yilning 2-choragi davomida korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tasdiqlangan va ijrosi xar chorak bo`yicha nazoratga olingan.

Korxonada manfaatlar to`qnashuvini boshqarish bo`yicha tegishli ichki idoraviy hujjatga asosan korxonada bo`yicha jami 99 nafar xodimlar tomonidan to`liq manfaatlar to`qnashuvi to`g`risida deklaratsiyalar to`ldirildi. Belgilangan tartibda deklaratsiyalar tahlil qilindi. Natijada, korxonada jami 6 nafar xodim bo`yicha qarindoshlik darajasi aniqlandi. Biroq manfaatlar to`qnashuvi aniqlanmadi.

Tahlil qilinganda 4 ta holatda xodimlar tijorat tashkilotlarining ta`sischilari va rahbarlari ekanligi, 4 ta xolatda ham yashirganligi aniqlandi. Holat yuzasidan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to`g`risida”gi qonunning 21-moddasi “Manfaatlar to`qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar” to`g`risidagi bandining 2-xat boshida “Manfaatlar to`qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, davlat organlarining xodimlari o`zining bevosita rahbarini darhol xabardor qilishi kerak. Manfaatlar to`qnashuvi mavjudligi

to'g'risida ma'lumotlar olgan rahbar bu to'qnashuvning oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rishi shart"ligi ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari, 4-xat boshida "Davlat organlarining manfaatlar to'qnashuvining oldini olish yoki uni bartaraf etish talablari buzilishiga yo'l qo'ygan xodimlari, shuningdek ularning rahbarlari qonunchilikka muvofiq javobgar bo'lishi" to'g'risida ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasi "Ushbu Qonunning amal qilishi davlat organlariga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga, davlat muassasalariga, davlat unitar korxonalariga, davlat maqsadli jamg'armalariga, shuningdek ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlariga (bundan buyon matnda davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar deb yuritiladi) nisbatan tatbiq etiladi"-deb ko'rsatib o'tilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Davlat ulushi 50% va undan ortiq bo'lgan tashkilot xodimlari uchun bunday ta'sischiлик (O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni 8-moddasi va 22-moddada manfaatlar to'qnashuvi va cheklovlar nazarda tutilgan: Davlat organlari va tashkilotlari xodimlariga tijorat tashkilotlarida ishlash, ularning ta'sischisi (uchastnigi) bo'lish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish taqiqlanadi, Davlat fuqarolik xizmatidagi yoki davlat ulushi 50% va undan ortiq bo'lgan tashkilotlarda ishlovchi shaxslarga tadbirkorlik bilan shug'ullanish, xususan tijorat tashkilotlarining ta'sischisi (qurilganiga sherik bo'lishi) taqiqlanadi) taqiqlangan. Bu holatlarda qonun buzilishi hisoblanadi. Bu xaqda kompliens xizmati mutaxassisi tomonidan belgilangan tartibda ogohlantirilgan va korxonaga rahbari tomonidan hodimlar ogohlantirilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, Korxonaga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha UZ.SMT.04.0016.00002094-raqamli muvofiqlik sertifikatini xam olingan.

**Kompliens xizmati mutaxassisi**



**M.Matnazarov**